ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

Shadiyeva Dilfuza Urinbayevna.
Angren Universiteti.”Pedagogika va psixologiya”kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna.
Angren Universiteti.”Pedagogika va psixologiya”kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol metodlarning mohiyati, ularni ona tili darslarida qo‘llash usullari va o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishiga ta’siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, bahs-munozara metodlari, rolli o‘yinlar va ijodiy mashg’ulotlar, interaktiv metodlar, muammoli o‘qitish, modulli ta’lim, kichik guruhlarda ishlash metodlari.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Jamiyat ehtiyojlari va texnologik taraqqiyotning jadal sur’atlarda rivojlanishi ta’lim tizimidan yangicha yondashuvlar, yangi texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion pedagogik yondashuvlar zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishning ajralmas qismiga aylanmoqda.Ayni paytda mustaqil O‘zbekistonimizda o‘quvchi yoshlarni ta’limga to‘g’ri yo‘naltirish juda katta

ahamiyatga ega. Zero, yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo‘lida. Yurtimizda ta’lim tizimidagi barcha islohotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, barchasi kelgusi avlod uchun berilayotgan e’tibor va kelajak uchun poydevordir. Shu jumladan, muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.”

Yurtboshimizning yuqoridagi so’zlaridan anglashilganidek, bugungi kundagi oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri-kelajak avlodni har tomonlama yuksak dunyoqarashga ega va o‘z fikrlarini erkin va ravon tarzda bayon qila oladigan va jamiyatda o‘z o‘rnini topib, jamiyat uchun ulkan hissa qo‘shadigan shaxslar qilib tarbiyalashimiz lozim. Ma’lumki, o‘quvchilarning ko‘p vaqtlari maktabda o‘tadi. Ularning ta’lim olishini to‘g’ri tashkil etish esa, o‘qituvchi-ustozlar zimmasidagi yuksak burch hisoblanadi. Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanib kelinmoqda. Chunki,o‘quvchilarga har doim bir xil dars o‘tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo‘lgan e’tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg‘ulotlari jarayonida turli xil qiziqarli zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir

qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o‘qituvchini izlanishga va o‘quvchini o‘z ustida ishlashga erkin fikrlashga undaydi.

Dars jarayonida foydalaniladigan metod shunday tanlanishi kerakki unda o‘quvchi o‘zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o‘zlashtira olishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Bu o’rinda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini oshiribgina qolmasdan, balki ta’lim samaradorligini ham yanada yuqori bo’lishini ta’minlaydi. Interfaol metodlar-bu o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqot va hamkorlikka asoslangan ta’lim usullaridir. An’anaviy darslardan farqli ravishda, interfaol metodlar o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, ularning fikr bildirish, mantiqiy tahlil qilish va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqishning kundan-kunga ortib borishiga asosiy sabablardan biri- shu vaqtgacha an’anaviy ta'limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini mustaqil o‘rganishga va tahlil qilishlariga o‘rgatadi.

Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Keng qo’llaniladigan usullar- “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so‘rov”, “Muammoli vaziyat”- kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Bu metodlarning oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Darslarni innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o‘qituvchi innovatsion faoliyat yuritgandagina ta’lim mazmuni o‘zgaradi. O‘quv mashg’ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili darslarida interfaol metodlardan

foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo‘lgan qiziqishlarini ham orttiradi.Quyida ana shunday metodlardan ayrimlari haqida ma’lumotlar keltiramiz:

1.Bahs-munozara metodlari

Bahs va munozaralar o‘quvchilarni faol fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini asoslab berishga o‘rgatadi.

-“Debat” usuli-o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, ma’lum mavzu bo‘yicha bahs olib boradilar. Har bir guruh o‘z dalillarini keltirib, fikrlarini asoslashga harakat qiladi.

-“Fikrlar paneli”-muayyan savol yoki mavzu atrofida har bir o‘quvchini o‘z fikrini bildirishga undaydi.

-“To‘g‘ri yoki noto‘g’ri? ”-o‘qituvchi mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni o‘qiydi, o‘quvchilar esa ularning to‘g’ri yoki noto‘g’ri ekanligini muhokama qiladilar.

2. Rolli o‘yinlar va ijodiy mashg‘ulotlar

-“Intervyu”-o‘quvchilar o‘zaro suhbat qurib, jurnalist va suhbatdosh rolini ijro etadilar.

-“Teatrlashtirilgan dars”-hikoya yoki badiiy asar sahnalashtiriladi, o‘quvchilar harakat va nutq orqali o‘z fikrlarini ifodalaydi.

-“Press-konferensiya”-o‘quvchilar tarixiy shaxs yoki asar qahramoni roliga kirib, jurnalistlar savollariga javob beradilar.

3. Kichik guruhlarda ishlash metodlari

-“Aqliy hujum”-mavzu bo‘yicha yangi g‘oyalar ishlab chiqiladi va baholanadi.

-“Klaster usuli”- asosiy tushuncha atrofida fikrlar guruhlanadi va izohlanadi.

-“Jamoaviy loyiha”-o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali ma’lum mavzu bo‘yicha loyiha tayyorlashda ishtirok etadilar.

4. Yozma nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar

-“Erkin esse”-mavzuga oid mustaqil fikr bildirish.

-“Matnli tahmin"-berilgan matnning davomini yozish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

-“Xat yozish”-tarixiy shaxs, qahramon yoki do‘stiga xat yozish orqali muloqot ko‘nikmalarini oshirish.

Interfaol metodlarni ona tili darslarida qo‘llash quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

-O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi shakllanadi;

-O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy bayon qilishga o‘rganadilar;

-So‘z boyligi oshadi va og‘zaki nutqi rivojlanadi;

-O‘quvchilar muloqot madaniyatiga ega bo‘ladilar.

Interfaol metodlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

-O‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi;

-Mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi;

-Nutqiy madaniyatni shakllantiradi;

-So‘z boyligini kengaytiradi va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi.

Bu metodlardan ona tili darslarida samarali foydalanish o‘quvchilarda dars mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga va nutq mahoratini rivojlantirishga olib keladi hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samimiy aloqalar o‘rnatiladi. Xulosa qilib aytganda,innovatsion metodlar o‘quvchilarning savodxon bo‘lishiga,bilim va ko‘nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o‘ynaydi. Dars mashg‘ulotlari davomida shu kabi metodlardan foydalanish o‘tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o‘quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o‘zining samarasini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni dars jarayonida samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, o‘zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish hamda o‘quvchilarda axborot berish, olish va qayta ishlash, o‘zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent. 2022.y

2.G’ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari// Innovatsiya o‘quv jarayonida (tezislar to‘plami). -T. 2009.y

3.Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent. 2003.y

4.Mamayusupova.S,Doniyorova.Sh.Ona tili usuliyoti.O‘quv qo‘llanma.Jizzax. 2013.y

5.Avlayev.O,Jo‘rayeva.S,Mirzayeva.S. “Ta’lim metodlari” o‘quv – uslubiy qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent-2017.y

6. Yusupova.Sh.Ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish.Ped.fan.nomz…diss.Toshkent:1998.y

7.https://xs.uz/uz.